

## QADIMGI VA HOZIRGI DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTI

**Maxmadaliyev Sobitjon**

QarMII “Iqtisodiyot” yo’nalishi 1-kurs talabasi

**Jasurbek Abdullayev**

*Ilmiy rahbar: QarMII Iqtisodiyot fakulteti tyutori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola qadimgi va hozirgi dunyo davlatlari xususan Afina va Gretsiya iqtisodiyoti, ular o’rtasidagi bog’liqliklar, farqlar va o’xshashliklarni aks ettiradi. Bu davlatlarning ma’lum muddatlardagi iqtisodiyoti va ushbu davrdagi ba’zi olimlarning asarlaridan iqtiboslar ushbu maqolada aks ettirilgan .*

**Kalit so’zlar :** *Delion ligasi , Pirey dengizi , Ksenofont , Platon , Aristotel, Saloniki, sanoat, qishloq xo’jaligi, iqtisod.*

### KIRISH

Ma’lumki qadimgi dunyo davlatlarida iqtisodiyot miloddan avvalgi davrlardayoq rivojlana boshlagan. Ilk sivilizatsiyalar Bobil, Mesopotamiya va Afina kabi madaniyat o’choqlarida paydo bo’lgan. Albatta bu davlatlarda, xususan Afinada iqtisodiyotning paydo bo’lishi va o’sha davr imkoniyatlariga nisbatan misli ko’rilmagan darajada tez sur’atlarda rivojlanishi qadimgi dunyo davlatlari uchun ma’lum bir ma’noda kashfiyot edi. Boshqa tomondan olib qaraganda uzoq muddat Usmonli imperiyasi mustamlakasida yashagan va ikkinchi jahon urushi davrida ham sezilarli aziyat chekkan Gretsiya (qadimgi Afina) ham boshqa Yevropa davlatlari singari jahon bozorida o’z import va eksport ulushiga ega . Albatta bu ikki davlat turli xil vaqt oralig’ida bo’lganligi sababli iqtisodiyotida ba’zi farqlar, lekin ma’lum bir joyda joylashganligi sababli qisman o’xshashliklari ham mavjud.

Miloddan avvalgi V asr boshlarida Afina shahar-davlat bo'lgan. Bir necha shaharlar Delion ligasida forsiylar bilan bo'lgan munosabatlar tufayli birlashdilar. Miloddan avvalgi 478-yilda Delion ligasida Afinaning vakillari, admirallari va xazinachilari bor edi. Bu liganing xazinasiga Delion ligasi xazinasida deb nom berildi, chunki bu xazina Delosda joylashgan edi. Shu yili Fors istilosi mag'lub bo'lgandan so'ng Forslar bilan tinchlik aloqalari o'rnatildi. Delion ligasi xazinasida esa turli xil bahonalar bilan Afinaga ko'chirildi. Shu tariqa Afina imperiyaga aylandi.

Delion ligasi xazinasida tufayli rivojlangan Afina imperiyasining iqtisodiyoti ishlab chiqarish va dengiz savdosiga asoslangan edi. Afinaning Pirey dengiz portiga yaqinligi uning iqtisodiyotiga juda ulkan hissa qo'shgan . Bu port orqali Afinaga boshqa davlat savdogarlari kirib kela olgan va Afina mahsulotlari eksport qilingan . Kirib kelayotgan tovarlarga 1% va hatto undan ham ortiq soliq belgilangani xazinaga juda katta foyda olib kelgan. Boshqa tomondan esa ishlab chiqarish ham ulkan darajada rivojlangan. Aholining

71-73% qismi 60-65% yerlarga egalik qilishgani, yalpi ichki mahsulotlarning 56% qismi ishlab chiqarishdan olingan degan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Afina davlatining iqtisodiyoti uchun eng asosiy manba Aristotelning "Afina siyosati" dir. Afina iqtisodiyotida esa 3 ta buyuk shaxs esga olinadi. Bular Ksenofont, Platon va Aristoteldir. Ksenofont quldorlar mafkurasini yoqlaydi. U dehqonchilik va qishloq xo'jaligini farovonlik manbasi deb hisoblaydi. U dehqonchilik rivojlantirish tarafdori bo'ladi, chunki dalada ishlash ham sog'liq uchun foydali, ham iqtisodiy naf keltiradi. Shuning uchun u "dehqonchilik-eng asosiy hunar" degan fikrni yoqlaydi. U uy xo'jaligini yuritish deganda pul jamg'arishni tushunganligi sababli "Shunday yashash kerakki, doimo ortiqcha mahsuloting bo'lsin" degan fikrni olg'a suradi. Uning fikricha "Qishloq xo'jaligi rivojlansa, boshqa faoliyat turlari ham rivojlanadi. Agar dehqonchilik pasaysa, u holda uning bilan birga suv va quruqlikdagi barcha boshqa sanoat faoliyati tarmoqlari ham rivojlanmaydi."

Platon esa "Davlat" va "Qonunlar" asarlarida ideal davlat qanday bo'lishi kerakligini ochib bermoqchi bo'ladi. U odamlarni toifaga

- 1.Faylasuflar
- 2.Harbiylar
- 3.Qora toifa

kabi ajratadi. Bu fikr mehnat taqsimoti, tovar, pul va savdogarlarning ajralib chiqishi o'rtasidagi aloqadorlik kabi g'oyalarning asosi va qaysidir ma'noda o'z davri uchun buyuk kashfiyot hisoblanadi

Ammo Aristotelning fikrlari bu fikrlardan ko'ra anchagina aniqroq bo'ladi. "Nikomaxov ahloqi" va "Siyosat" kitoblarida turli xil fikrlar berib o'tadi. Uning fikricha "Qul-tirik qurol, qandaydir tirik mulkdir". Uning eng asosiy fikri Afina iqtisodida olg'a suriladi. U "Nikomaxov ahloqi" asarida aytishicha "Jamiyat ikki vrachdan tashkil bo'lmaydi, balki vrach va dehqondan, umuman, bir xil va teng bo'lmaganlardan tashkil topadi. Ana shunday odamlarni bir-biriga tenglashtirish zarur. Xullas, hamma narsa boshqa bir narsa bilan o'lchanishi kerak. Etikdo'z mahsulotining dehqon mahsulotiga, dehqon mahsulotining etikdo'z mahsulotiga bo'lgan to'g'ri munosabati, to'g'ri tenglamasini topish kerak. Hamma narsa ayirboshlanishi kerak. Biz nima uchun almashamiz, chunki senga mening tovarim, menga sening tovaring kerak". Lekin umuman olganda, uchala shaxs ham iqtisodiyotning asosida dehqonchilik turishini aytishadi.

Ammo Afinada qishloq xo'jaligi qanchalik rivojlanmasin, u yetarlicha mahsulot ishlab chiqarmasdi. Rivojlangan Afinada iste'molga bo'lgan talabni Afinaning ichki tovarlari yetarlicha qondirolmayotganligi tufayli chet eldan oziq-ovqat mahsuloti ichki bozorga kirib keladi. Yuqorida aytilganidek o'z o'rnida ulardan soliq olinib davlat xazinasiga topshirilgan va bu iqtisodiyotga foyda keltirgan.

Yana Afinada tabaqalashtirish oqibatida boy fuqarolardan maxsus va shahar farovonligi uchun boshqa soliqlar ham doimiy tarzda olib turilgan. Bunga liturgiya tizimi deb nom berilgan. Boshqa kichik daromadlar bojxona to'lovlari va jarimalardan olingan.

Xullas Delion ligasining ulkan xazinasini, Pirey dengiz porti, bojxona soliqlari, boy qatlam aholisining ko'pligi, unumdor yerlarning katta qismi qishloq xo'jaligi uchun foydalanganligi, faylasuflarning iqtisod sohasida to'g'ri fikr yuritganligi Afina iqtisodiyotining juda tez va deyarli mukammal tarzda rivojlanganligi hamda ma'lum davrlarda yuqori darajaga chiqqanligining eng asosiy sabablari hisoblanadi.

Albatta qadimgi Afinani yeri unumdor bo'lganligi uchun yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining ulushi 16% ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligining eng asosiy tarmog'i esa dehqonchilik hisoblanib, bu soha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 75% qismini tashkil etadi. Mamlakat maydonining 30% ga yaqini ekinzor bo'lganligi sababli yerlarni ijaraga berish keng tarqalgan. Gretsiyada zaytunning 31 turi o'sib, ular yiliga 2 marta gullab hosil beradi. Aholi jon boshiga 10 tupdan zaytun to'g'ri kelishi bu soha Gretsiyada yuqori darajada rivojlanganidan darak beradi. Gretsiya zaytun yog'i ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-o'ringa turadi. Ammo ekinzorlarning atigi 1.9% qismigina bog'dorchilikka tegishlidir. Ammo aksariyat daraxtlar yiliga 2 marta hosil beradi. bundan tashqari bug'doy, sholi va arpa yetishtirish ham rivojlangan. Chorvachilik sohasi esa anchagina zaif. Yaylovlar o'rnida ekin maydonlari borligi bunga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Yuqorida aytib o'tilganidek Gretsiyada Pirey hamda Saloniki va Elefsis dengiz portlari mavjudligi iqtisodiyotga quyidagi ulkan ta'sirlarni ko'rsatadi:

1. Baliqchilar bu dengizlarda baliq tutish imkoniyatiga ega
2. Chet el sayyohlari dengiz kemalari orqali tashrif buyurishi mumkin
3. Gretsiya savdo flotining salmog'i jihatidan dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.
4. Gretsiyada 2579 ta kema 1000 ga yaqini boshqa davlat bayroqlari bilan suzadi.

Umumiy hisobda 1 yilda 10 millionga yaqin sayyoh tashrif buyurishiga sabab Gretsiya qadimgi Afina o'rnida joylashgani hamda ko'plab dengiz kurortlariga ega bo'lganligidir.

Gretsiyada zamonaviy sanoat ham anchagina rivojlangan. Yalpi ichki mahsulotning 18% qismini sanoatning ulushi tashkil etishi buning yaqqol misolidir. Gretsiyada yiliga o'rtacha 30,5 mlrd.kVt\soat elektr energiya hosil qilinadi va asosiy elektr stansiyalar yoqilg'ida ishlaydi. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, neftni qayta ishlash kabi yirik korxonalar mavjud. Asosan yengil va oziq-ovqat tarmoqlari rivojlangan. Gretsiya chetdan kelgan neftni qayta ishlash orqali ham sezilarli darajada foyda oladi. Gretsiyaning asosiy sanoat markazlari bu poytaxt Afina va Saloniki shaharlaridir.

Yuqoridagi ma'lumotlar orqali shuni anglashimiz mumkinki, qadimgi Afinada rivojlangan dehqonchilik bugungi kunda Gretsiyada ham o'z so'zini aytmoqda. Xuddi o'tmishdagidek Pirey dengizi bugun ham Gretsiya iqtisodiyotining muhim bir bo'lagidir. Qadimgi Afina esa ayni davrda millionlab sayyohlarni chorlayotganligi ham ushbu davlatlarda qadim o'tmish va zamonaviy kelajak orasidagi ko'priklardan biridir. 21-asrga kelib zamonaviy sohalarni o'z ichiga olgan Gretsiya iqtisodiyoti esa vaqt va zamon o'z ta'sirini ko'rsatganini aytmoqda. Umuman olganda yuqorida keltirilgan ma'lumotlar

orqali qadimgi Afina va hozirgi Gretsiya iqtisodiyoti orasida juda ko'p o'xshashliklar, ayrim bog'liqliklar va ulkan farqlar borligi ko'rishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. SH.H.Tashmatov, X.S.Asatullayev, Z.G.Allaberganov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. "TOSHKENT IQTISOD-MOLIYA 2019"
2. A.Razzaqov, SH.Toshmatov, N.O'rmonov, P.Xoshimov, F.Egamberdiyev. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi "Toshkent-2005"
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild . Toshkent-2000
4. Gretsiya: дефолт неминуем
5. Human Development Report 2009 (данные на 2007 год включительно)
6. Attiki Odos S.A. — Responsibility towards the environment, the society and the human being